



MINISTRY OF CULTURE OF UZBEKISTAN
FERGANA REGIONAL BRANCH OF UZBEKISTAN
STATE INSTITUTE OF ARTS AND CULTURE

ORIENTAL ART AND CULTURE

ISSN 2181-063X
SCIENTIFIC
METHODICAL
JOURNAL
VOLUME 4 ISSUE 5
OCTOBER 2023

KOKAND

MINISTRY OF CULTURE OF UZBEKISTAN

FERGANA REGIONAL BRANCH OF UZBEKISTAN STATE INSTITUTE OF
ARTS AND CULTURE

ORIENTAL ART AND CULTURE

ISSN 2181-063X
SCIENTIFIC METHODOICAL JOURNAL
VOLUME 4 ISSUE 5 / OCTOBER 2023

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2021-yil 31-iyuldagi №303/6-sonli qaroriga asosan “Oriental Art and Culture” ilmiy-metodik elektron jurnali San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etiladigan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Impakt faktor 4.047 (SJIF 2021)



KOKAND

Editor in chief

Gapurov Mirmuxsin Kamoldinovich
Associated Professor

Executive Secretary

Turgunbaev Rashid Muxtorovich

Corrector

Asqarova Munajat Husanovna

Bosh muharrir

G'apurov Mirmuxsin Kamoldinovich
Dotsent

Mas'ul kotib

Turg'unboev Rashid Muxtorovich

Musaxxix

Asqarova Munajat Husanovna

Editorial board

S.Mannopov
National artist of Uzbekistan, Professor
Ximmatov Davlat Axatqulovich
Associated Professor
I.Yuldashev
Doctor of Philology, Professor
M.Bashmanov
Candidate of Philology, Associated Professor
M.Abdullaeva
Honored mentor of youth of Uzbekistan, Professor
K.Yuldashev
Honored Artist
Sh.Usmonov
Professor
Sh.Imomnazarova
PhD of Philological Sciences
R.Xolmatov
Candidate of Historical Sciences
Z.Fazlieva
Associated Professor
D.Mamajonov
PhD of Historical Sciences, Associated Professor
I.Dadajanova
PhD of Art Criticism, Associated Professor
O.Ahmedova
PhD of Philology, Associated Professor
Sh.Khudonazarova
Head of scientific department of UzAC
I.Habibjonov
PhD in Philology

Tahririyat

S.Mannopov
O'zbekiston xalq artisti, professor
Ximmatov Davlat Axatkulovich
Dotsent
I.Yo'ldashev
Filologiya fanlari doktori, professor
M.Bashmanov
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
M.Abdullayeva
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi, professor
K.Yo'ldashev
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi
Sh.Usmonov
Professor
Sh.Imomnazarova
Filologiya fanlari PhD
R.Xolmatov
Tarix fanlari nomzodi
Z.Fazliyeva
Dotsent
D.Mamajonov
Tarix fanlari PhD, dotsent
I.Dadajanova
San'atshunoslik fanlari PhD, Dotsent
O.Ahmedova
Filologiya fanlari PhD, dotsent
Sh.Xudonazarova
O'zDXA ilmiy bo'lim boshlig'i
I.Habibjonov
Filologiya fanlari PhD

Ta'sischi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining
Farg'ona mintaqaviy filiali

ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI, OBRAZ YARATISHDA ILHOM VA TAFAKKURNING ROLI HAMDA ANVAR SUYUNNING “G‘O‘BDINTOG‘ HIKOYALARI”DA BADIY OBRAZLAR XUSUSIYATLARI

Bobur Bahodir o‘g‘li Nusratov
bobur_nusratov_nb@mail.ru
Alfraganus University

Annotatsiya: Maqolada badiiy obraz tushunchasiga ilmiy izoh berildi. Anvar Suyunning “G‘o‘bdintog‘ hikoyalari” to‘plamida keltirilgan hikoyalardagi obrazlarning umumiy xususiyatlariga ta’rif berildi.

Kalit so‘zlar: badiiy obraz, estetik kategoriya, obyektivlik va subyektivlik, ilhom, tafakkur, peyzaj, iboralar, takror, ijodiy kuch

THE ROLE OF INSPIRATION AND TAFAKKUR AND CHARACTERISTICS OF ARTISTIC IMAGES IN ANVAR SUYUN'S “GOBDINTOG STORIES”

Babur Bahadir oglu Nusratov
bobur_nusratov_nb@mail.ru
Alfraganus University

Abstract: The article provides a scientific explanation of the concept of artistic image. Anvar Suyun’s “Stories of Gobdintog” describes the general characteristics of the characters in the stories.

Keywords: artistic image, aesthetic category, objectivity and subjectivity, inspiration, thinking, landscape, phrases, repetition, creative power.

Obraz, badiiy obraz - voqelikni faqat san’atga xos usulda o‘zlashtirib va o‘zgartirib xarakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham Obraz deb yuritiladi.

Obrazda obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Badiiy Obrazning o‘ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga bo‘lgan munosabatda aniq namoyon bo‘ladi. Obraz voqelikning badiiy in’ikosi sifatida real mavjud obyektning hissiy aniq, tayin zamon va makonda davom etgan, moddiy tugal, o‘zicha yetuk xususiyatlariga ega bo‘ladi. Badiiy Obrazni real obyekt bilan chalkashtirmaslik kerak; u shartlilik, ramziylik xususiyati bilan real voqelikdan farq qiladi va asarning ichki «illyuziyali» olamini tashkil qiladi. Obraz voqelikning oddiy

in'ikosi bo'lmay, balki uni umumlashtirib, alohida, o'tkinchi, tasodifiy hodisaning eng mohiyatli, o'zgarmasmuqim, adabiy jihatlarini ochib beradi.

Mavhum tushunchadan farqli ravishda Obraz ko'rgazmalilik xususiyatini namoyon etadi, u voqealarni mavhum mulohazalar bilan emas, balki hissiy yaxlit, bir butun takrorlanmas tarzda aks ettiradi. Obrazning badiiyligi mavjud voqelikni aks ettirish va uni anglash xususiyati b-n belgilanmaydi, balki badiiylilik obrazning misli ko'rilmagan, yangi o'ylab chiqarilgan dunyo yarata olish imkoniyatida yuzaga chiqadi. Obrazda obyektiv mavjud va muhim jihatlar bilan birga, bo'lishi mumkin bo'lgan, mo'ljaldagi, xohishdagi, ya'ni turmushning emotsional-irodaviy tomonlariga munosabat, uning ko'rinmas, ichki imkoniyatlari bilan bog'liq xususiyatlar ham muxrlangan bo'ladi. Shuningdek, badiiy Obrazda xayolot, bo'yoq, tovush, so'z va b. ni ijodiy ishlash yo'li bilan san'at asari yaratiladi

Badiiy obraz xususiyatlarini o'rganishni atamaning mazmunidan boshlagan ma'qulroq. "Obraz" atamasi "raz" ("chiziq") so'zidan olingan bo'lib, "raz" so'zidan "razit" ("chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq") va undan "obrazit" ("chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq") so'zi yasalgan. "Obrazit"dan "obraz" ("umuman olingan tasvir") vujudga kelgan.

Aslida "obraz" slavyan tillariga xos so'z bo'lib, u voqea - hodisalarning xayolda namoyon bo'ladigan manzarasini bildiradi. Slavyanlar "obraz" deganda, avvalo, odamzotni azob - uqubatlardan saqlab qolish uchun Alloh tomonidan yuborilgan Iisus Xristos (Iso payg'ambar)ning rassomlar, haykaltaroshlar tasvirlagan qiyofasini tushunishgan. Obraz yaratishda ilhom va tafakkur ishtiroki ham beqiyos, ayni chog'da, judayam qiziqarlidir.

Ilhom va tasavvur badiiy kashfiyotning hal qiluvchi faktori bo'lsa-da, niyatning amalga oshishida tafakkur ham jonli ishtirok etadi, boshqacha aytganda, materialga ongli munosabat hamma vaqt zaruratdir.

Qayerda faqatgina tasavvur yoki faqatgina aqlga e'tibor qaratilsa, o'sha yerda ijodning bir tomoni alohida qimmat kasb etadi va umuman olganda, avlodlar didini qoniqtirmaydi. Faqatgina ikkala tomon bab-barobar tamoyilga ega bo'lgandagina to'g'ri yo'l topilgan bo'ladi. Shuning uchun ham Shiller "Tasavvur aql bilan birlashganda shoir-san'atkorni yetishtiradi", - deydi. Ha, tasavvur faqatgina aql ishtirokida haqqoniylik kasb etadi.

Gyotening aytishicha, mazmun tasavvurning ichki tajribasidan bevosita va erkin oqib chiqsa, shaklni voqelik ta'sirida aql kashf etadi. Ularning ikkalasi birlashadi, bu o'zaro birlashish yaxlit va go'zal bo'lishi uchun u tahlil qilinishi, anglanishi shartdir.

Go'yo yozuvchida ikki qiyofa birlashadi: biri fikr-g'oya bilan mahliyo bo'lgan san'atkor, ikkinchisi "Buni qilish kerak, undan qochish kerak" deb fikr beruvchi tanqidchi. Lekin tasavvur bilan aqlning vazifasi turlichadir. Agar tasavvur ijodiy kuch bo'lsa, xotira va tajribaning turli vositalarini guruhlashtirib yangilik yaratsa, bu ideal

voqelik talablariga javob bersa, aql tasavvur yaratayotgan ishni nazorat qiladi, uning butunligini va qismlarining garmonik birligini ta'minlashga xizmat qilmaydigan ortiqchaliklarga barham beradi.

Demak, aql boshqaradi, hal etadi, izlaydi, rad etadi, lekin tasavvur yaratgan narsani tamoman buzmaydi. Aql tasavvurning maslahatchisi bo'ladi. U ongli faktor sifatida san'atkor didi vazifasini o'taydi. Didni tarbiya asosida olish mumkin, uni yaxshilash yoki turli estetik qarashlar orqali buzish ham mumkin. Shuning uchun ham did tasavvurni to'ldiradi, talant tabiatining umumiy belgisiga aylanadi.

Ana endi bevosita o'rganish va tadqiqot uchun manba qilib olingan Anvar Suyunning "G'o'bdintog' hikoyalari" to'plamiga e'tibor qarataylik. Bu asar haqida Jasur Kengboyev "Yoshlik" jurnalining 2016-yil, 3-sonida shunday iliq fikrlarni keltirib o'tgan edi:

"Yaqinda "G'o'bdintog' hikoyalari"ni o'qib chiqdim. Mutolaa jarayonida ba'zi fikrlar tug'ildi-yu, qo'ng'iroq qilib, sizga aytmog'chi bo'ldim. Keyin fikrlarimni ikki enlik maktub shaklida bayon qilsam, boshqalar ham o'qisa, ehtimol, yangi fikrlar ham tug'ilar va ayrim teng-to'shlarimizga foydasi tegar, ijod maydoniga ot solayotgan do'stlarimizda ozgina mulohaza uyg'otib, shijoat qo'zg'ar, deya o'yladim.

Xullas, "G'o'bdintog' hikoyalari" yaxshi to'plam bo'libdi. Nimasi yaxshi? Tili. Personajlaringiz buqalamun emas: goh u shevada, goh bu lahjada sayramaydi. Hammasiyam ko'kayi tuproq iskagan, zamindan oyog'i uzilmagan, jaydari odamlar. Ayniqsa, bolalar ruhiyati yaxshi chizilgan: kitobiy emas, haqiqiy; dalaning, qiradirlarning havosidan nafas olayotgan bolakaylarning ichki dunyosi durust tasvirlangan (men bu o'rinda asosan "Ota va o'g'il" hikoyangizni nazarda tutyapman).

Nazarimda, "Ikki tong orasi", "Yo'qchi" hikoyalaringiz to'plamdagi eng baquvvat, hikoya janri talablariga to'la javob beradigan, milliy ruhni yaqqol ko'rsatadigan asar bo'libdi. Savdolashayotgan dallolning "Ko'nglingizga botmasin deb, mo'ljalingizga yaqin oldim", olomonning "Tiling tanglayingga yopishib qolganmi, guldirasang-chi!", "(ulov) kuchdan qolgan qirchang'iday imillab", "Jag'iga pichoq qayraydigan bo'libdi" ("Ikki tong orasi") kabi tasvir va ifodalar o'quvchiga xush yoqishi tabiiy".

Tahlil jarayonida Anvar Suyun hikoyalaridagi obrazlarning ifodalari kengligiga, tabiat tasviri, peyzajida ham o'ziga xos yashirin ma'noliklar borligini ko'ramiz. Bu ham yangi obrazlilik va an'anaviy tasvir metodlarining birlashib ketganligidan dalolat beradi.

Biroq "Majlisboshi" hikoyasidagi bunday tasviriylilik ortib ketganligini ham ko'rishimiz mumkin. Aytilganidek: "Qish. Kechagina qilichini qayrab turgan ayoq negadir ortga chekinib, qaylargadir g'oyib bo'ldi-yu, anchadan buyon qirchillagan

sovuqda hurpayib yurgan odamlarga iliqlik va namxush havo xush keldi", Jasur Kengboyev so'zi bilan aytganda, tub mohiyati "Iti siylasang, to'rga o'tar" degan o'zbek xalq maqolini ifodalovchi mazkur hikoyani ortiqcha tabiat manzarasi ifodasidan forig' qilinganda ham hech nima o'zgarmaydi.

"Tomosha" hikoyasida qahramonning tili kitobiy tilga mos shakllantirilgan. Bu esa kimlarningdir tanqidiga sabab bo'lsa, kimlardir esa buni yozuvchi tajriba imkoniyatlarining bir ko'rinishi deb aytishi ham mumkin.

Asardagi so'z takrori asosidagi "Qiya qaradi", "hayiqib ketdi", "qovurchini qotgan", "mahramlar" ham tasviriy obrazlar yaratishga xizmat qilgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, badiiy obraz murakkab tuzilish va murakkab ko'rinishga ega; u borliq bilan ruhiy dunyoning bir-biriga o'tishidagi barcha momentlarni o'z ichiga oladi. Badiiy Obraz vositasida subyektivlik bilan obyektivlikning, yakka holat bilan umumiylikning, ideallik bilan reallikning o'zaro muvofiq munosabatlari ijodiy ishlab chiqiladi. Anvar Suyunning "G'o'bdintog' hikoyalari"da ham bunga qisman erishilgan bo'lsa, qisman kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Albatta, keyingi tadqiqotlarda ularning har biriga detallarigacha e'tibor berishni ko'ngilga tuggan holda, shuni nazarda tutamizki, bu bizning badiiy obraz tushunchasi va uning badiiy asarda tutgan o'rniga ko'ra qiyosiy tahlillarimizning debochasi xolos.

Maqsadimiz esa badiiy obrazning muhim vazifasi uning hayotdagidek salmoqdorlik, yaxlitlik va jonlilikka ega ekanligini kelgusi ilmiy maqollarimizda tushunish va anglashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilmurod Qur'onov, "Adabiyot nazariyasi asoslari", 2018, T.
2. I.Sulton, "Adabiyot nazariyasi", Toshkent, 1980.
3. To'xta Boboyev, "Adabiyotshunoslik asoslari", Toshkent, 1979.
4. H.Umurov, "Adabiyot nazariyasi", Toshkent 2002.
5. D.Qur'onov va b.q. "Adabiyotshunoslik lug'ati", T:"Akademnashr", 2010
6. Anvar Suyun, "G'o'bdintog' hikoyalari", T: "Akademnashr", 2015

Table of Contents / Mundarija

1.	Vosidjon Valijonovich Maxmudov USTOZ SOZANDALAR IJROCHILIK USLUBINING BARDAVOMLIGI (G'IJAK CHOLG'USI MISOLIDA)	9
2.	Malikaxon Ziyoyeva DUTOR SOZANDASI FAOLIYATINING TARTIBI VA GIGIYENASI	15
3.	Икбол Мамасадыкович Меликузиев ВИЗУАЛЬНОЕ РЕШЕНИЕ И КАЧЕСТВО В ФИЛЬМАХ (ПРОРЫВ ОТЕЧЕСТВЕННЫХ КИНООПЕРАТОРОВ)	21
4.	Axrorjon Qurbonovich Yusupov, Barhayotjon Sobirjanovich Kodirov YANGI O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA FUQAROLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI	33
5.	Abror Maxamad-Sodiqovich Zufarov "GARDUNI NAVO" PARDA TIZIMI HAQIDA MULOHAZALAR	37
6.	Azamat O'ktamovich Xasanov AN'ANAVIIY UD IJROCHILIGINING RIVOJLANISH NAZARIY ASOSLARI	42
7.	S.Saydaliyev O'ZBEK AN'ANAVIIY MUSIQA IJROCHILIGIDA O'ZIGA XOS BEZAKLAR	46
8.	X.Shermatova BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK MUAMMO YECHIMINI ANIQLASH	51
9.	Abdulaziz Ahmadxo'jayevich Akbarxo'jayev CHIZMATASVIRLARDA KOMPOZITSION YECHIMLARNI MODELLASHTIRISH	58
10.	M.Djumaboyeva PEDAGOGIK QOBILIYATNING ASOSIIY SIFATLARI VA XUSUSIYATLARI	62
11.	Mo'min Mo'minov O'ZBEKISTONDA FORTEPIANO SAN'ATINING RIVOJLANISHI	65
12.	Gulbahor Valijonovna Raximova AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'QUVCHILAR DUNYOQARASHIGA TA'SIR ETISHDAGI O'RNI	69
13.	Dildora Abzalovna Rahimova GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASI	75
14.	Abdulaziz Ahmadxo'jayevich Akbarxo'jayev GRAFIKA SAN'ATI ASARLARINING KO'RINISHLARI	81
15.	Isroil Yuldashevich Saidumarov VOKAL IJROCHILIGIDA OVOZ POSTANOVKASI VA NAFAS OLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	85
16.	Komiljon Mirzayev ZABARDAST OVOZ SOHIBI	89
17.	Maxida Maxsetovna Kulchigayeva QORAQALPOQ KOMPOZITORLIK IJODINING YORQIN NAMOYONDASI - MARQABAY JIYEMURATOV	92
18.	Manas Bekpolatovich Abdreymov FILMLARDA OVOZ YOZISH JARAYONIDA MIKSHER PULTLARDAN FOYDALANISH	95
19.	N.Madaminov O'QITUVCHILARNING KASBIIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH	100
20.	X.Xoliqnazarov SHARQ MAQOMOTI TARIXIDAN	105
21.	Достонбек Ином ўғли Абдуллаев МЕЗРОБЛИ ЧОЛГУЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	110

22.	Mushtariybegim G'ofurjon qizi Komilova, Mo'minjon Abduraximjon o'g'li Komilov, Sh.Usmonov MUSIQIY SPEKTAKLLARDAGI BADIY YAXLITLIK OMILLARI	117
23.	Xursanoy Umarova, Xo'jamberdi Muxtorovich Egamberdiyev, Sh.Usmonov QO'QON MUSIQALI TEATRI MUSIQIY SPEKTAKLLARDAGI BADIY YAXLITLIK OMILLARI	123
24.	Otabek Rustambek o'g'li Anvarov QO'QON SHAHAR MUSIQALI DRAMA TEATRI SAHNASIDA JAHON MUMTOZ ASARLARIGA YANGICHA NAZAR VA IJRO TALQINI	128
25.	Feruza Yunusovna Xamalova PEDAGOG KADRLARNI INNOVATSION FAOLIYATINI TAHSIL ETISH MASALALARI	135
26.	Ijodbek Jo'rayev MUSIQIY TOVUSHLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI	138
27.	N.Utaganova KARIM YO'LDASHEV IJODIGA BIR NAZAR	142
28.	Dilrom Ismoilovna Musayeva, Baxtiyor Husainovich Jo'rayev THE GENRE OF THE ETUDE AND IN THE WORKS OF COMPOSERS M.CLEMENTI AND K. CZERNY	146
29.	Abdolvohid Mamarasulovich Nazarov NAMANGAN ME'MORIY BEZAKLARI VA ULARNI SAQLASH MUAMMOLARI	151
30.	Ulug'bek Azimjon o'g'li Burxonov, Azizjon Nabijonovich Talaboyev AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHIDA OVOZ MASHQLARINING O'RNI VA UNGA MAQOM IJROCHILIGI YUZASIDAN YONDASHUV	158
31.	Feruz Ne'matov BOLANING ESHITUV QOBILIYATINI HAMDA OVOZINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	162
32.	Bobur Bahodir o'g'li Nusratov ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI, OBRAZ YARATISHDA ILHOM VA TAFAKKURNING ROLI HAMDA ANVAR SUYUNNING "G'O'BDINTOG' HIKOYALARI"DA BADIY OBRAZLAR XUSUSIYATLARI	166
33.	Ilyos Arabov O'ZBEK MILLIY MAQOM SAN'ATIDA ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING O'RNI	170
34.	Karim Yuldashev, Mamlakat Alijanovna Jo'raeva A.N.OSTROVSKIYNING DRAMATURGIYASI	174
35.	Sh.Qurbonova SHARQ XALQ MAQOMLARINING O'RGANISHNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI	178
36.	Nilufar Usmonova AKTYOR IJROSIDA AN'ANAVIY QO'SHIQCHILIKNING O'RNI	183
37.	Mahfuza Ergash qizi Xo'jageldiyeva BOSHLANG'ICH SINIF MUSIQA DARSLARIDA MUSIQIY FAOLIYATLAR MAZMUNI	191
38.	Ulug'bek Karimjonovich Xuramov VENA KLASSIK MAKTABI YETAKCHISI F.Y.GAYDNING IJODIGA BIR NAZAR	200
39.	Ikbolxon Inomjonovna Raxmatova AGRESSIVLIKNI OLDINI OLISHDA SAN'AT, BADIY IJODKORLIK VA ART- TERAPIYADAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	208